

**TERMINOLOGIYA VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
(NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

Islamov Dilshod Narmaxammatovich

O'R QK "Tinchlik yo'lida hamkorlik" Markazi

Roman-german tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada terminologiya sohasining tilshunoslikda tutgan o'rni, rivojlanish bosqichlari, unga qo'yiladigan talablar, terminologiyaning zamonaviy tendensiyalari, tilshunoslik sohasining turli bo'limlari bilan bog'ligi, nemis va o'zbek tillarida terminologiya sohasining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari borasida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль области терминологии в языкознании, этапы ее развития, требования к ней, современные тенденции терминологии, ее связь с различными разделами области языкознания, значение и особенности области терминологии в немецком и узбекском языках.

Abstract: This article discusses the role of the field of terminology in linguistics, its stages of development, the requirements placed on it, modern trends in terminology, its connection with various branches of linguistics, and the importance and specific features of the field of terminology in German and Uzbek.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, leksikologiya, semantika, kognitiv terminologiya, funksiya, kommunikativ funksiya, monosemiya, polisemiya, komposita, sotsiolingvistika, stilistika, ilmiy matn.

Ключевые слова: термин, терминология, лексикология, семантика, когнитивная терминология, функция, коммуникативная функция, моносемия, полисемия, композит, социолингвистика, стилистика, научный текст.

Key words: term, terminology, lexicology, semantics, cognitive terminology, function, communicative function, monosemy, polysemy, composite, sociolinguistics, stylistics, scientific text.



Tilshunoslik – tilni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganuvchi fan. Uning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan terminologiya muayyan soha doirasidagi tushunchalarni ifodalovchi maxsus so‘z va iboralarni o‘rganadi. Terminologiya tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki u tilning leksik tizimini boyitadi, ilmiy bilimlarni aniq va ixcham tarzda ifodalashga yordam beradi, soha mutaxassislari o‘rtasida o‘zaro tushunishni ta‘minlaydi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma‘lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o‘sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi. Shu o‘rinda terminologiya so‘ziga quyidagicha ta‘rif berib o‘tamiz: *Terminologiya* (termin va ... logiya) 1) leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog‘ining, san‘at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma‘noda ma‘lum bir sohaga oid maxsus leksika ham hisoblanadi. Terminologiyani til lug‘at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g‘oyaga ko‘ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e‘tirof etilsa, ikkinchi ta‘limotga muvofiq u adabiy til so‘z boyligi tarkibidan ajratiladi, “alohida turuvchi” obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so‘zlashuv)ga tenglashtiriladi. V.P.Danilenkoning ta‘kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya‘ni an‘anaviy fan, ilm yoki texnika tili nazarda tutiladi. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so‘zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi.

Terminologiyani tilshunoslik sohasida o‘ziga xos bo‘lgan muhim vazifalari mavjud. Ushbu vazifalarni quyida ko‘rib chiqamiz.

- Aniqlikni ta‘minlash (Ta‘riflash funksiyasi): Terminlar muayyan sohada ishlatiladigan tushunchalarni aniq va qisqa ta‘riflashga xizmat qiladi. Har bir termin aniq bir tushunchani ifodalashi va uning xususiyatlarini belgilashi kerak. Bu xatoliklarni oldini olish va mutaxassislar o‘rtasida aniq tushunishni ta‘minlash uchun juda muhimdir.



- Tizimlashtirish (Tizimlashtirish funksiyasi): Terminologiya soha doirasidagi bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi. Terminlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni aks ettiradi, soha haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Misol uchun, tibbiyotda "yurak", "qon tomirlari", "qon aylanish tizimi" kabi terminlar birgalikda yurak-qon tomir tizimini tavsiflovchi tizimni tashkil qiladi.
- Muloqotni osonlashtirish (Kommunikativ funksiya): Terminologiya soha mutaxassislari o'rtasida muloqotni osonlashtiradi. Umumiy terminologiya soha vakillariga bir-birlarini tushunishga, o'z tadqiqotlari haqida aniq ma'lumot almashishga, yangi g'oyalar va texnologiyalarni muhokama qilishga imkon beradi.
- Bilimni saqlash va uzatish (Bilimni saqlash va uzatish funksiyasi): Terminologiya ilmiy bilimlarni saqlash va kelajak avlodlarga uzatishda muhim rol o'ynaydi. Darsliklar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va boshqa o'quv materiallarida terminlar orqali bilimlar aniq va ixcham tarzda taqdim etiladi. Bu esa o'quvchilarga ularni o'rganishni osonlashtiradi va soha bo'yicha bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Terminlarni termin sifatida qaralishi uchun talab etadigan o'ziga xos jihatlarga ega. Ishonchli va yaxshi termin quyidagi talablarga javob berishi keradir. Ilk o'rinda albatta, aniq ma'nolilik, ya'ni, monosemiyani ta'kidlab o'tmoqni joiz deb bilamiz. Termin bir ma'noli bo'lishi va turli talqinlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bir so'z bir nechta tushunchani ifodalaganda, chalkashlik yuzaga kelishi mumkin. Keying o'rinni ixchamlilik va qisqalik xususiyati egallaydi. Termin qisqa va esda qolarli bo'lishi kerak. Bu terminni oson yodlash va uni nutqda tez ishlatish imkonini beradi. Undan so'ng muvofiqlik va tizimlilik xususiyatini ta'kidlamoq joizdir. Termin sohaning umumiy tizimiga mos kelishi kerak. Yangi terminlar mavjud terminlar bilan mantiqiy bog'liq bo'lishi va ularning orasida hech qanday ziddiyat bo'lmasligi kerak. Navbatdagi xususiyatini umumiylik yoki standartlik tashkil etadi. Termin iloji boricha ko'pchilik mutaxassislar tomonidan qabul qilinishi va ishlatilishi kerak. Standartlashtirilgan terminologiya soha bo'yicha xalqaro muloqotni osonlashtiradi. Hamda so'nggi xususiyati bu motivlanganlikdir. Termin o'zining tarkibiy qismlari



orqali tushunchaning mohiyatini aks ettirishi kerak. Bu terminni tushunish va eslab qolishni osonlashtiradi.

Nemis va o'zbek tillari bir-biriga qarindosh bo'lmagan tillar hisoblanib, bu ikki til o'rtasida so'z ko'payish, so'z boyish jarayonlari bir-biridan farqlanadi. Tilda so'zlarning yaxlit ma'no kasb etishi hamda ushbu so'zlarning ma'lum bir aniq sohaga mansub ekanligini. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, terminologiya sohasi o'rganadi. Nemis va o'zbek tillari turli genetik oilalarga mansub bo'lishiga qaramay, terminologiyaning rivojlanishi va qo'llanilishida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Nemis tilida tilshunoslik sohasining rivojlanishi muhim rol o'ynaganligi sababli, nemis terminologiyasi uzoq tarixga ega. Nemis terminlari aniqligi, standartlashtirilganligi va ixchamligi bilan ajralib turadi. Ko'pgina nemis terminlari murakkab so'zlardan (Komposita yoki Zusammensetzung) iborat bo'lib, bu ularning ma'nosini tushunishni osonlashtiradi. So'z va terminlarning yasaliş prinsiplari leksikologiya bo'limida alohida o'rganiladi.

O'zbek tili miqyosida ham olib qaraydigan bo'lsak, o'zbek tili mustaqillikdan so'ng terminologiya sohasida sezilarli rivojlanishga erishdi. O'zbek terminologiyasi ko'proq chet (rus, ingliz) tillaridan o'zlashgan terminlardan iborat. Shu bilan birga, o'zbek tilida yangi terminlar yaratish va mavjud terminlarni moslashtirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Bu borada tilshunos olim H.Dadaboyev chuqur tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. O'zbek tilida terminologiyaning rivojlanish bosqichlari, prinsiplari hamda xususiyatlari borasida "O'zbek terminologiyasi" nomli o'quv qo'llanma yaratgan bo'lib, ushbu o'quv qo'llanma orqali har bir o'rganuvchi o'zbek tili terminologiyasi borasida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin.

Umuman olganda yuqorida tilga olingan ikkala tilda ham terminologiyani standartlashtirishga e'tibor qaratiladi, lekin nemis tilida bu jarayon uzoqroq tarixga ega. Nemis tilida DIN (Deutsches Institut für Normung) kabi tashkilotlar terminologiyani tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda esa bu vazifani O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti qoshidagi Terminologiya qo'mitasi bajaradi.



Terminologiya har ikki til tilshunosligining bir qismi sifatida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratadi va bevosita ta'sir qiladi: Bizga ma'lumki, nemis tili va o'zbek tili tilshunoslogida leksikologiya bo'limi alohida o'ringa egadir. Ikkala tilda ham leksikologiya borasidagi o'ziga xosliklar, o'xshash jihatlar va farqli taraflar mavjud. Leksikologiyada terminlar tilning leksik tarkibini boyitadi va uning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Yangi tushunchalar paydo bo'lishi bilan yangi terminlar yaratiladi, bu esa tilning lug'at boyligini oshiradi. Tilshunoslik tarmog'ining semantika bo'limida terminlar ma'no masalalarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Terminning ma'nosi uning sohadagi o'rnini belgilaydi va terminlar o'rtasidagi munosabatlar tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni aks ettiradi. Stilistika tarmog'i nuqtai nazaridan terminlar ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini yaratishda ishtirok etadi. Ilmiy matnlarda terminlardan aniq, rasmiy va neytral uslubda foydalanish talab etiladi. Bu jarayon so'zlardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish sababli amalga oshiriladi. Tarjimashunoslik sohasida ham terminlar tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega sanaladi. Terminlarning aniq tarjimasini sohadagi ma'lumotlarning to'g'ri uzatilishini ta'minlaydi va xalqaro muloqotni osonlashtiradi. Bu holat ikki va undan ortiq tillar o'rtasida nafaqat tilni o'zlashtirishga, balki uning madaniyati bilan ham tanishishga imkon yaratadi. Sotsiolingvistika sohasida terminlar ahamiyatli rol o'ynaydi, muayyan soha mutaxassislarining ijtimoiy guruhini belgilab beradi va ularning kasbiy o'ziga xosligini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, tilshunoslikning har bir bo'limi uchun terminlarning o'rnini beqiyosdir.

Hozirgi kunda terminologiya sohasida o'ziga xos zamonaviy tendensiyalar mavjud bo'lib, ushbu tendensiyalar quyidagi jarayonlarda ko'zda tashlanmoqda:

1. *Terminologiyani globallashtirish va internatsionalizatsiya*: Fan va texnikaning rivojlanishi bilan terminlarning xalqaro miqyosda qo'llanilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili ko'plab sohalarda xalqaro terminologiya tili sifatida ustunlik qilmoqda.

2. *Terminologiyani standartlashtirish*: Turli sohalarda terminologiyani standartlashtirishga e'tibor kuchaymoqda. Standartlashtirish terminlarning aniqligini, bir xilligini ta'minlaydi va xalqaro hamkorlikni osonlashtiradi. ISO (International



Organization for Standardization) kabi tashkilotlar terminologiyani standartlashtirish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

3. *Terminologik lug'atlar yaratish:* Turli sohalar bo'yicha terminologik lug'atlar yaratish va ularni doimiy yangilab borish muhim. Zamonaviy lug'atlar nafaqat terminlarning ta'rifini, balki ularning kelib chiqishini, grammatik xususiyatlarini, sinonimlarini va boshqa tillardagi ekvivalentlarini ham o'z ichiga olishi kerak.

4. *Avtomatlashtirilgan terminologiya tizimlari:* Terminologik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tarqatish uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish terminologik ishning samaradorligini oshiradi. Bunday tizimlar tarjimonlar, texnik yozuvchilar va boshqa mutaxassislariga katta yordam beradi.

5. *Kognitiv terminologiya:* Bu yo'nalish terminlarni insonning kognitiv tuzilishi va bilish jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganadi. Kognitiv terminologiya terminlarning ma'nosini tushunish va ularni samarali ishlatishga yordam beradi.

Biz izlanish olib borayotgan nemis va o'zbek tillarida terminologiya, ularning yasaliş prinsiplari hamda rivojlanish bosqichlari kabi masalalar juda qizg'in mavzulardan biri sanaladi. Albatta, nemis va o'zbek tillari bir-biriga qarindosh bo'lmagan tillar ekanligini hisobga olgan holda, har ikkala tilda ham terminlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari turli-tuman desak also mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, terminologiya tilshunoslikning muhim qismi bo'lib, tushunchalarni aniq ifodalash, sohalararo muloqotni osonlashtirish va bilimlarni saqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari tilning leksik tizimini boyitadi, ilmiy bilimlarni aniq va ixcham tarzda ifodalashga yordam beradi, soha mutaxassislari o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Shunday ekan, nafaqat nemis va o'zbek tillari uchun, balki barcha tillar uchun terminologiyani o'rganish va rivojlantirish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Arntz R, Heribert P, Klaus-Dirk Sch. Einführung in die Terminologearbeit. 7., vollst. überarb. und akt. Aufl. Hildesheim, 2014**



2. **DTT = Deutscher Terminologie-Tag e.V. (Hg.) (2016): Terminologiarbeit – Best Practices 2.0. Köln. (auch engl. Version mit Erscheinungsjahr 2020 verfügbar).**
 3. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi, Toshkent, 2019.
 4. Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. - London, 1967.
 5. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания.- М.,: Наука, 1977.
 6. Мадвалиев А.Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари.Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
- Ҳожиёв А. Термин танлаш мезони.1996.